MUNIS XORAZMIY G‘AZALLARIDA TARIQAT MAQOMLARINING BADIIY TALQINI

Sadoqat Otamuratova To‘lqinbek qizi,
Abu Rayhon Beruniy nomidagi
Urganch davlat universiteti doktoranti
e-mail: sadoqatotamuratova@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Shermuhammad Munis ijodida tariqat masalalarining badiiy-falsafiy talqini ilmiy tahlil qilinadi. Shoir g‘azallarida ifodalangan tariqat maqomlari — zuhd, sabr, rizo, shukr va ma’rifat tushunchalarining mohiyati ochib beriladi. Tanlangan she’riy misollar asosida Munisning tasavvufiy dunyoqarashi hamda ruhiy kamolot bosqichlarini badiiy ifodalashdagi poetik mahorati yoritiladi. Tadqiqot jarayonida shoir ijodida tariqat diniy-axloqiy ta’limot doirasidan chiqib, yuksak badiiy tafakkur va falsafiy mushohada mahsuli sifatida namoyon bo‘lishi asoslanadi.*

Kalit so‘zlar: *tariqat, maqom, zuhd, rizo, sabr, ma’rifat, haqiqat, shukr, g‘azal.*

Kirish. Shermuhammad Munis ijodida tariqat – insonning ichki dunyosi bilan bog‘liq yo‘l bo‘lib, u insonning ichki pokligi va vazmin tabiatidir. Tariqat arab tilidan “yo‘l degan ma’noni bildirib, bu yo‘ldan faqat Haq taologa yaqinlashmoq va Uning roziligini topishga intilganlar yuradi. Bu yo‘lga kirishni xohlagan kishilarga “solik”, safar davomida ularga “sayri suluk” deyiladi. Ammo tasavvufda tariqatlar shunchalik ko‘pki, sanog‘lar yetmaydi. Tariqatlar tarbiya metodlariga, zikr ko‘rinishlariga, muhabbat darajalariga, fikr tizimlariga ko‘ra farq qiladi. Har bir tariqatning ustozi bo‘lib, ular shayx deb yuritiladi. Ulardan Qodiriya, Kubraviya, Mavlaviya, Yassaviya, Naqshbandiya tariqatlari mashxurdir.

Adabiyotlar tahlili. Avvalo, Munis devoniga oid asosiy manbalar sifatida 1980-yilgi Munis Saylanmasi, 2025-yilgi O‘zbek adabiyoti xazinasining Shermuhammad Munisga bag‘ishlangan 37-tomlari tahlil qilindi. Unda g‘azallarning manbaviy-nasriy tavsifi keltirilgan bo‘lsa-da, tasavvufiy ma’no qatlamlari chuqur tahlil etilmagan. Jumladan, Munis ijodi borasida N.Jumayevning “Munis g‘azaliyoti”, O‘zbek mumtoz she’riyati antologiyasining 31-tomida shoir ijod namunalari tahlilga tortilgan. Mavjud adabiyotlarda Shermuhammad Munis g‘azallarining umumiy badiiy jihatlari yoritilgan bo‘lsa-da, uning ayrim she’rlaridagi tasavvufiy obrazlar tizimi, ma’naviy-falsafiy qatlamlar chuqur ochilmagan. Shuning uchun maqola ana shu bo‘shliqni to‘ldirishga, Munis g‘azaliy merosining tasavvufiy-estetik tahliliga yangicha yondashuv asosida baho berishga urinadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Munis g‘azallarining asosiy yo‘nalishlaridan biri – Haqqa muhabbat, murshidga sadoqat, nafsni yengish, ruhiy kamolotga yetish singari tasavvufiy jihatlardir. U bu g‘oyalarni o‘zining g‘azaliy tili, ramzlar tizimi, poetik

mahorati bilan ifoda etadi. Ayniqsa, ishq ramzi orqali berilgan “ma’naviy sayr” tushunchasi uning ruhiy yo‘nalishdagi asarlarining asosini tashkil etadi.

Shermuhammad Munis ijodi va uning g‘azaliy merosi xususida ilmiy adabiyotlarda muayyan fikrlar bildirilgan bo‘lsa-da, uning tasavvufiy qarashlari, ayniqsa ayrim g‘azallarida mujassam tasavvufiy bosqich va maqomlar tahliliga bag‘ishlangan maxsus tadqiqotlar hali yetarli emas. Mazkur maqola shu jihatdan mavjud adabiy-tanqidiy tadqiqotlarni to‘ldirishga qaratilgan.

Tahlillar va natijalar. Tariqat – bu inson ichki dunyosining ichki dunyosining turli yo‘llardan harakatlanishidir. Tariqat – bu ichki poklik, insonning vazmin bo‘lishi, so‘zlaganda ham ma’noli so‘zlashidir. Tariqat maqomlardan iborat bolib, ba’zi tariqatlarda 7, 10, 40 gacha maqomlar bor deb qaraladi.

Endi bu bosqichda pirga ergashish, unga sadoqat bilan xizmat qilish, sodiq shogird bo‘lish zarurdir. Quyidagi baytlarda bunga misollar keltiriladi:

Ey ko‘ngul, qil dayr piri qullug‘inkim, subh-u shom,
Ayla nafsi belijom ing tavsang in royish ango. [1:**147]**

Ey ko‘ngil, pir xizmatini erta-yu kech ado et deyayotgan shoir keying baytda buning sababini keltirgandek ko‘rinadi.

“Urma murshid buyrug‘idin o‘zga yetgay ishqa qo‘l.”

Murshid tasavvufda ko‘zgu, Alloh tomon yetaklovchi pirdir. Pirning buyrug‘idan chiqish – Alloh yo‘lidan chiqishdir. Baytda “ishq” ilohiy kuch bo‘lib, murshid orqali qalbga joylanadi.

Farzandlik tariqi budurkim, suv sabab,
Topmas qo‘lngdin ichgali bir qattra ob ab. [1:198]

“Farzandlik tariqi” – bandalik yo‘li, “ob ab” – pok suv, inoyat. Baytda shoir inson qanchalik kuchli bo‘lmasin Alloh rahmat(suv)siz najot yo‘qligi haqida fikr yuritgan.

Quyidagi baytda tariqat yo‘liga kirish tasvirlangan bo‘lib, “g‘ofil” – nafsga yengilgan kishi, “talab” – Alloh yo‘li. Baytda Alloh yo‘lida yurish, dunyo havasiga aldanmaslik g‘oyalari aks etgan.

Talab yo‘lig‘a kirmay yurarsen, turg‘il, ey g‘ofil,
Ki, ul usru yiroq zoding kimi noyob erur matlab. [1:95]

Taro vish aylamas emdi ko‘nguldan obi tarab,
Ki, oni nechaye anduh qilmis afsurda. [1:48]

“Obi tarab” — dunyoviy lazzat, “afsurda” — xafa, so‘ngan. Shoirning qalbi dunyo shodligidan sovigan, endi u Allohdan najot istaydi. Bu zuhd maqomining o‘zidir.

Gar zindalik tilarsen, tut go‘shayeki, mundin —
Tarkibi ruh dahonin oxir topar sulola. [1:108]

“Go‘sha” — uzlat, “dahon” — ilohiy kalom. Shoir fikricha chin hayot (zindalik) uzlatda, ya’ni dunyodan voz kechishda. Ilohiy kalom – zikr esa najotdir. Baytda tariqat bosqichida uzlat va zikrning muhimligi aks etgan.

Davati diydoring aylar orzu ko‘nglum, valek,
Naylayinkim, komig‘a yetkurmas oniy dahri dun. [1:95]

Orif Haq diydoriga intiladi, lekin “dahr” — dunyo unga to‘siq. Bu dunyo — hijron sababi, u “nafs va dunyoviy istak” timsolidir. Bu sabr maqomining aksidir.

Ko‘ngul ichra nuring porlab durur,
Zohirimni ham jamoling yoritur. [1:346]

Shoir uchun zohir va botin o‘zaro teskari emas, bir-birini to‘ldiruvchi hodisalar. Ma’rifat — botin nuri zohirni yoritgan holatdir. Bu qarash Naqshbandiya tariqatidagi “xilvat dar anjuman” (“xalq ichra Haq bilan bo‘lish”) tamoyiliga uyg‘un: orif dunyodan uzilmaydi, dunyo unga zulmat bo‘lmaydi.

Tasavvufda shukrni — zikrning bir shakli sifatida qaraladi. Zikrda til bilan eslansa, shukrda qalb bilan eslanadi. Munis g‘azallarida bu ikki holat uyg‘un:

Munis bu yanglig‘ duo etar subh-u shomkim,
Ishrat halol bo‘lsin-u kulfat harom ango. [1:78]

Bu baytda “duo” — zikr, “ishrat halolligi” — shukrdir. Munis uchun shukr — doimiy zikr holati, banda har lahzada Allohni yodga olib yashaydi.

Tariqatda orifning ruhiy barqarorligini ta’minlab, Allohga yaqinlik, Allohga muhabbatini ham kuchaytiruvchi maqom ham shukrdir.

Allohga va uning irodasiga to‘liq suyanuvchi maqom bu tavakkul maqomidir. Tavakkul ruhiy tinchik va ishonch maqomidir. Ammo bu harakatsizlik emas, balki natijani Allohdan deb bilishdir. Solik sabr va shukrni o‘zida mujassam etganida, tavakkulga yetadi; tavakkul orqali esa rizo holatiga kiradi. Bu maqom insonni g‘am va qo‘rquvdan ozod etadi.

Xulosa. Shermuhammad Munis ijodida tariqat – insonning ichki dunyosi bilan bog‘liq yo‘l bo‘lib, u insonning ichki pokligi va vazmin tabiatidir. Tariqat arab tilidan “yo‘l degan ma’noni bildirib, bu yo‘ldan faqat Haq taologa yaqinlashmoq va Uning roziligini topishga intilganlar yuradi. Bu yo‘lga kirishni xohlagan kishilarga “solik”, safar davomida ularga “sayri suluk” deyiladi. Ammo tasavvufda tariqatlar shunchalik ko‘pki, sanog‘lar yetmaydi. Tariqatlar tarbiya metodlariga, zikr ko‘rinishlariga, muhabbat darajalariga, fikr tizimlariga ko‘ra farq qiladi. Tariqat maqomlari o‘zaro bog‘liqdir, masalan, sabrning natijasi shukr, shukrning natijasi esa rizodir. Shukr

qilgan inson ishning oxirida bir hikmatga yoki rahmatga ega bo‘ladi. Shukr qilmagan inson Allohdan uzoqlashadi, norozilik kayfiyati uyg‘onadi bu esa insonni ma’naviy olamining zayiflashishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbek adabiyoti xazinasidan. Shermuhammad Munis. 37-tom. Toshkent: “O‘zbekiston”, 2025.
2. Dilorom Salohiy. Tasavvuf – komil axloq ilmi. Samarqand: “Turon nashr”, 2025. 168-bet.
3. Shermuhammad Munis. Saylanma. G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti. Toshkent, 1980.
4. Shermuhammad Munis. O‘zbek mumtoz she’riyati antologiyasi. 31-tom. Toshkent: “O‘zbekiston”, 2022.